



O'ZBEKISTON TABIATIDA UCHRAYDIGAN ILONLARNING TUR TARKIBI VA HAYOT TARZI

Dadayev.S.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Biologiya fanlari doktori, professor

Xujanazarova Yulduz Kamoliddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Biologiya" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda Respublikamiz hududida tarqalgan ilonlar kenja turkumi 6 oilaga mansub, 21 ta turni o'z ichiga olgan bo'lib, mazkur turlarning Respublikamiz hududida uchrash joylari va hayot faoliyatları haqida yetarlicha ma'lumotlar mayjud emas. Ushbu maqola yurtimiz tabiatida uchrovchi mazkur oilalarga mansub ilonlarning tur tarkibi, tarqalish hududlari hayot tarzi va ahamiyatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: Ilonlar, oila, Eryx miliaris, kemiruvchilar, kenja tur, Boiga trigonata, Gloydius halys, Vipera (Pelias) rinardi, Ustyurt, Nurota, Bobotog, biolo-giyasi, serpentariya, inkubatsiya davr, amaliy ahamiyati.

SPECIES AND LIFESTYLE OF SNAKES FOUND IN THE NATURE OF UZBEKISTAN

Dadayev.S

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, doctor of biological sciences, professor

Xujanazarova Yulduz Kamoliddin qizi

4th year student of Nizomiy Tashkent State Pedagogical University majoring in "Biology".

Abstract. Nowadays, the subgroup of snakes distributed in the territory of our Republic belongs to 6 families and includes 21 species. There is not enough information about the existong places and life activities of these species in the territory of our Republic. This article provides enough information about the species composition, distribution areas, lifestyle and significance snakes belonging to these families found in the nature of our country.

Key words: Snakes, family, Eryx miliaris, rodents, subspecies, Boiga trigonata, Gloydius halys, Vipera (Pelias) rinardi, Ustyurt, Nurota, Bobotog, biology, serpentaria, incubation period, practical importance.



ВИДЫ И ОБРАЗ ЖИЗНИ ЗМЕЙ, ОБНАРУЖЕННЫХ В ПРИРОДЕ УЗБЕКИСТАНА

Дадаев С.

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми,
доктор биологических наук, профессор

Хужаназарова – дочь Юлдуза Камолиддина.

Студентка 4 курса Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низомия по специальности «Биология».

Абстрактный. Сегодня распространенная на территории нашей Республики подгруппа змей относится к 6 семействам и включает 21 вид. Информации о местах встречи и жизнедеятельности этих видов на территории нашей Республики недостаточно. В данной статье представлены сведения о видовом составе, ареалах распространения, образе жизни и значении змей, принадлежащих к этим семействам, встречающихся в природе нашей страны.

Ключевые слова: Змеи, семейство, *Eryx miliaris*, грызуны, подвиды, *Boiga trigonata*, *Gloydius halys*, *Vipera (Pelias) rinardi*, Устюрт, Нурута, Боботог, биология, серпентария, инкубационный период, практическое значение.

Ilonlar kenja turkumining yer yuzida 18 oilaga mansub, 3000 taga yaqin turi bo'lib, MDH da ilonlarning 60 taga yaqini, O'zbekistonda esa 6 ta oilaga kiruvchi 21 tur ilon uchraydi.

O'zbekiston tabiatida uchraydigan ilonlar yer yuzida tarqalgan turlarning qariyb 0.7% ini tashkil etadi. Bu ilonlar Respublikamizning Bobotog', Zarafshon, Hisor, Ko'hitang, Turkiston, Nurota tog'lari, Markaziy va Janubiy Qizilqum, Qarshi, Sandiqli cho'llarda, Farg'ona vodiysi va Toshkent vohalarida, Surxandaryo viloyati, Orol bo'yи hududlarida va yana bir qancha hududlarda kuzatiladi. Har bir ilon turlarining o'ziga xos yashash joyi va ushbu hudud muhitga mos ravishda yashash tarzi va moslanishlari mavjud.

Respublikamiz hududida uchraydigan ilonlar 6 ta oilaga masub bo'lib, ulardan 2 ta tur bo'g'ma ilonlar oilasiga, 13 turi suv ilonlar oilasiga, 1 ta turi aspidlar, 1 ta turi ko'rilonlar, 1 ta turi shaqildoq ilonlar oilasiga va 3 ta turi qora ilonlar oilalariga mansub hisoblanadi.

Qum bo'g'ma iloni-*Eryx miliaris* (Pallas, 1773). Bo'g'ma ilonlar oilasiga mansub. Ustyurt, Qizilqum, Xorazm vohasi, Zarafshon daryosi quyi oqimida uchraydi. Cho'llarning ko'chib yuruvchi qumlari, mustahkam qumli, mayda toshli qum tuproqlarning siyrak o'simlikli qismida, ba'zan sertuproqli yerlar va o'zlashtirilgan dalalarda kuzatiladi.

Biologiyasi: Qum bo'g'ma iloni bahor vaqtida kunduzi hayot kechiradi, yozda esa tungi hayot tarziga o'tadi. May oyining o'rtalarida faol harakatda bo'ladi. Bu ilon kuzda




sentabrning oxirida ham uchraydi. Ozuqasining asosiy qismi mayda kemiruvchilar (dala sichqonlar), kaltakesaklar (qum to'garakboshi, tez kaltakesak, dasht agamasi) hisoblanadi. Kam miqdorda qushlar va hasharotlar bilan oziqlanadi. Biologik xilma-xillikni saqlash nuqtayi nazaridan qiziqishga ega bo'lgan tur hisoblanadi.

Hind boygasi (*Boiga trigonata*). Suvilonlar oilasiga mansub. Surxandaryo viloyatining janubi, Qizilqumda uchraydi. Asosiy yashash joylari qum va tuproqli cho'llar, jar va chuqurlar, tog'larning pastki qismlaridagi siyrak o't-butali toshli qiyaliklar, dalalar va eski turar joylar.

Biologiyasi: O'zbekistonda sanoqli topilmalari ma'lum. Aprel-oktabr oylarida tunlari faol hayot kechiradi. Kunduzi tuproq yoriqlarida, toshlar ostida, jarliklardi qushlar uyasida, kemiruvchilar inida dam oladi va shu yerda qishki uyquga ketadi. Daraxt va tomlar ustida chaqqon harakatlanadi. Taxminan may oyida juftlashadi. Iyun-iyul oylarida 3-11 donagacha tuxum qo'yadi. Bolalari sentabr-oktabrda tuxumdan chiqadi. Kaltakesak va qushlar bilan oziqlanadi. Yerlarning o'zlashtirilishi turning yashash sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ilon lokal tarqalgan kenja tur biologik xilma-xillikni saqlash nuqtayi nazaridan qiziqishga ega bo'lgan tur hisoblanadi.

Sarmat iloni (*elaphe sauromates*). Ushbu ilon to'rt yo'lli chipor iloni kenja turi hisoblanadi. Hayot tarzini yorituvchi materiallar yetishmaydi. O'zbekistonda doimo kam bo'lgan va sanoqli uchraganligi ma'lum. Aprel-oktabr oylarida kunduzi faol hayot kechiradi. Orol dengizining ilgarigi orollaridan birida noyabrnning birinchi yarmida qishlash davriga o'tmagan ilon qayd etilgan.(1-rasm). Daraxt kovaklarida, toshlar ostida, tuproq yoriqlarida,kemiruvchilarning inlarida berkinadi. Dam olish joylarida qishlaydi. May oyida juftlashadi. Iyun-iyulda 4-16 ta tuxum qo'yadi. Bolasi tuxumdan sentabr-oktabrning boshida chiqadi. Kemiruvchilar, qushlar va ularning tuxumlari,sharq bo'g'ma iloni, taqir to'garakboshi, tez kaltakesakchalar bilan oziqlanadi.2-rasm).

Amaliy ahamiyati: Tabiatda kam sonli bo'lganligi uchun biotsenozdagagi roli sezilarli emas. Noyob, arealining chetida lokal tarqalgan tur sifatida saqlash nuqtayi nazaridan e'tiborli hisoblanadi.





1-rasm. Sarmat iloni tarqalishi

2- rasm. Sarmat iloni (*elaphe sauromates*)

Bushilon (*Gloydius halys*). Shaqildoq ilonlar oilasiga mansub, qalqontumshuq iloni deb ham ataladi. Ustyurt, Orolbo'yi, Qizilqum, Turkiston, Zarafshon, Oloy, Farg'ona, Chotqol, Ugam, Pskem, Hisor, Nurota tog'larida uchraydi. Tog'larning o't va butalar bilan qoplangan qoyalari, archazor va o'rmonlarda yashaydi.

Biologiyasi: Fevralda qishki uyqudan keyin yer yuzasiga paydo bo'ladi. Erta bahorda kunning o'rtasida va ikkinchi yarmida, yozda quyosh botishdan oldin faolligi oshadi. Iyun oyida 10 tagacha va undan ziyod tuxum qo'yadi. Ozuqasining tarkibi quruqlikda yashovchi umurtqalilardan tashkil topgan. Sutemizuvchilar (yumronqoziq, qumsichqon, ko'rsichqon, dalasichqonlari), qushlar va ularning bolalari, sudralib yuruvchilar (turkiston agamasi, rang-barang kaltakesakcha, ssink gekkon) bilan oziqlanadi. Uning tullashi mayning ikkinchi yarmidan boshlab kuzatilgan. Toshkentda serpentariya sharoitida bushilon hayot faoliyati uchun ratsional sun'iy muhityaratish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Amaliy ahamiyati: Zahari farmakologiya sanoatida, zardob vaboshqa dori-darmon preparatlarini tayyorlashda xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Dasht qora iloni - *Vipera (Pelias) rinardi*. Qora ilonlar oilasiga mansub. G'arbiy Tyanshan tog' tarmoqlari, Chirchiq va Sirdaryo vohalarida uchraydi

Biologiyasi: Toshlar ostida, tuproq yoriqlarida, kemiruvchilar inida jon saqlaydi va o'sha yerda qishlaydi. O'tgan asrning 70-yillarida lokal populyatsiyalar soni bir hektar maydonda 10-12 dona uchragan. Hozirgi paytda soni juda kamayib ketgan, ayrim hududlarda umuman yo'qolib ketgan. Jumladan, 30 yillarda Toshkent atroflarida uchragan bo'lsa, bugungi kunda bu ilon topilmaydi. Martning oxirlarida qishki uyqudan uyg'onib yer yuzasiga chiqadi. Ayrim yillarda fevral oxirida ham uchrab qoladi. Martning ikkinchi yarmi - may oyida ertalab va kechki paytlarda, yoz oylarida tunda, sentabr-oktabrda kunning o'rtalarida faol hayot kechiradi. Mart-may oylarida juftlashadi. Avgust-sentabrda bolalaydi. Tug'ilgan bolalarining soni 3-16 tani tashkil etadi. Yosh ilonlar 3 yildan keyin jinsiy voyaga yetadi. Hasharotlar, o'rgimchaksimonlar, mayda kaltakesaklar, qushlar va sutemizuvchilar bilan oziqlanadi.

Amaliy ahamiyati: Zahridan farmakalogiyada keng foydalilaniladi.

O'rta Osiyo kobrasi, (*Naja oxiana*). Aspidlar oilasiga mansub.

Biologiyasi: XX asrning 80-yillarida janubiy hududlar Bobotog' etaklari, Surxondaryo vodiysi adirlari, Hisor tog' lari, Qarshi va Sandiqli cho'llarida 1,5 hektar maydonda 1 dona uchragan. Hozirgi vaqtida ayrim yashash joylarida butunlay yo'q bo'lib ketgan, qolganlarida esa soni kamaygan. Tuproq yoriqlari, toshlar osti, kemiruvchilar (katta va tushki qumsichqonlar) toshbaqalar inlarida jon saqlaydi va o'sha yerda qishlaydi. Martning oxiri-aprelning boshlarida qishki uyqudan yer yuzasiga chiqadi. Aprelda kun davomida uchratish mumkin. Mayda ertalab va kechki paytlarda, yoz oylari tongda va qorong' i tushayotgan paytlarda faol hayot kechiradi. Oktabrda kunduzgi turmush tarziga qaytib o'tib, sekinlik bilan noyabrning yarmigacha



qishlash uchun berkinadi. May oyida juftlashadi. Iyunda 6-19 ta tuxum qo'yadi. Inkubatsiya davri 72-73 kun davom etadi. Sentabrda tuxumdan ilonchalar chiqadi. Yosh kapcha ilonlar 3-4 yoshda jinsiy voyaga yetadi. Bu ilon baqalar, ilonlar va kaltakesaklar, ayrim hollarda mayda qush va kemiruvchilar bilan oziqlanadi. Janubiy hududlarda may oyida tullashi qayd etilgan. Hozirgi vaqtida ovlash taqiqlangan. Surxon, Hisor, Kitob va Nurota qo'riqxonalarida muhofaza ostiga olingan. Ilonning chaqishi odam hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytib, o'tish joizki tabiatda erkin holda tarqalgan ilonlarning bir qancha o'ziga xos xarakterli tomonlari bo'lib, ular turli oylarda faol harakatda bo'ladi, tullah va ko'payish davrlati ham bir-biriga o'xshamaydi. Ulardan qora ilon va qalqontumshuq ilon tuxumdan tirik tug'ish yo'li bilan, O'rta Osiyo kobrasi, charx ilon, ko'lvor ilon esa tuxum qo'yish yo'li bilan ko'payadi.

Tabiatda tarqalgan bir qancha ilon turlari foydali harakterga ega bo'lib, ayniqsa zaharli ilonlarning farmakologiya sohasida o'rni beqiyos. Bu ilonlarga asosan, qora ilonlar oilasiga mansub, qum charx iloni, ko'lvor iloni va dasht qora ilonini misol qilib keltirishimiz mumkun. Qora ilonlar ko'p ovlanishi natijasida hozirgi kunda soni juda kamayib bormoqda. Hozirgi kunda ushbu ilon Ugom-Chotqol Milliy bog'ida muhofaza ostiga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Богданов.О.П.Фауна Узбекской ССР, т.1, Земноводные и пресмыкающиеся. Ташкент, 1960. 259 с.
2. Богданов О.П. Редкие животные Узбекистана. Энциклопедический справочник. Ташкент, 1992, 229 с.
3. S.Dadayev, K.Saparov "Umurtqalilar zoologiyasi"- Toshkent "Turon-iqbol" 2019.
4. Dadayev S., Saparov Q.A. Zoologiya (xordalilar Il qism). Oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichi biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «CHO'LPON» nomidagi nashriyot-matbaa ilodiy uyi, 2011
5. S.Dadayev, K.Saparov "Umurtqalilar zoologiyasi"- Toshkent "Turon-iqbol" 2019.
6. Shernazarov E., Jumanov M.O'zbekiston suvda hamda quruqlikda yashovchilari va sudralib yuruvchilari(o'quv uslubiy qo'llanma)"Xorazm "nashriyoti,Urganch -2015.

Interet ma'lumotlari:

- <https://en.wikipedia.org/wiki/Adder>
- <https://geografiya.uz/hayvonot-olami/10874-ozbekistonda-tarqalgan-zaharli-ilonlar-ular-haqida-nimalarni-bilamiz.html>